



Xusniddin BURXANOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi, sotsiologiya fanlari doktori
E-mail: doktarant@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD X.Kadirova taqrizi asosida

MILLIY SAYTLAR FAOLIYATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada jamiyatning barqaror taraqqiyoti talablariga mos holatda global internet tarmog'idagi milliy segmentni rivojlantirish masalalari muhokama qilingan. Bu borada mamlakatning turli yo'nalishlardagi zamonaviy veb-resurslarni shakllantirish lozim ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, raqamli jamiyatda aholini ijtimoiy, iqtisodiy, jarayonlardagi maqsadi o'rganilgan. Bundan tashqari, internet orqali jamiyatda turli g'arazli ma'lumotlar paydo bo'layotganligi ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga raqamli jamiyatda global internet tarmog'ini tartibga solishda va axborot xavfsizligini ta'minlashdagi muammolarni kelib chiqishiga qonunchilikdagi bo'shlaqlar sabab bo'layotganligi ochib berilgan. Global internet tarmog'idagi milliy segment saytlarini rivojlantirishga qaratilgan muammolarni o'rganishda ayni vaqtdagi nazariyalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Internet, axborot xavfsizligi, saytlar, milliy segment, blogger, raqamli jamiyat, texnologiya, jamoatchilik fikri, destruktiv axborot, g'oya, kadrlar, normativ hujjatlar, qonunchilik.

ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫХ САЙТОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы развития национального сегмента глобальной сети Интернет в соответствии с требованиями устойчивого развития общества. В этой связи указывается на необходимость формирования современных веб-ресурсов в различных областях. Также изучаются социальные, экономические и технологические цели населения в цифровом обществе. Кроме того, рассматривается появление в обществе различной вредоносной информации через Интернет. При этом выявляется, что пробелы в законодательстве обуславливают проблемы регулирования глобальной сети Интернет и обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе. При исследовании проблем развития национальных сегментов глобальной сети Интернет изучаются современные теории.

Ключевые слова: Интернет, информационная безопасность, сайты, национальный сегмент, блогер, цифровое общество, технологии, общественное мнение, деструктивная информация, идея, персонал, нормативные документы, законодательство.

CHARACTERISTICS OF THE ACTIVITY OF NATIONAL SITES

Annotation

This article discusses the issues of developing the national segment of the global Internet in accordance with the requirements of sustainable development of society. In this regard, it is indicated that the country needs to form modern web resources in various areas. The social, economic, and process goals of the population in the digital society are also studied. In addition, the emergence of various malicious information in society through the Internet is considered. At the same time, it is revealed that gaps in the legislation are causing problems in regulating the global Internet and ensuring information security in the digital society. In studying the problems of developing national segment sites in the global Internet, current theories are studied.

Key words: Internet, information security, sites, national segment, blogger, digital society, technology, public opinion, destructive information, idea, personnel, regulatory documents, legislation.

Kirish. Bugungi kunda aholining axborotga bo'lgan talabini qondirish, global internet tarmog'ida milliy segmentni rivojlantirish va demokratik tamoyillar asosida aholini destruktiv g'oyalardan himoya qilish zarur. Shuning uchun raqamli jamiyatda zamonaviy axborot texnologiyalarini tez o'rganish va zamon bilan hamnafas yashash lozim. Bu borada davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart"[1].

Mazkur sohada aholini turli buzg'unchi g'oyalardan asrashga qaratilgan harakatlar uzoq tarixga ega, bu borada bir qator qarashlar va nazariyalar bor. Ulug' bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy sotsiologiya nazariyasini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan. U insonlarning o'zaro muloqot vositasi haqida fikr yuritgan. Xususan, "Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun

(zarur) bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir".[2] deb ta'kidlaydi. Ayni vaqtda, insonlarning muloqot vositasiga aylanib borayotgan internetni ham turli xohishlarni ifodalash uchun yaratilgan vosita deb atash mumkin. Inson doimo muloqot qilishga intilgan, bugungi kunda ham jamoalar, davlatlar internetda muloqot uchun o'z milliy saytlariga ega bo'lishlari zamon talabidan kelib chiqmoqda.

Umuman olganda, global tarmoq axborot almashuviga asoslangan bo'lib dastlab axborotlarni raqamlarda ifodalashga harakat qilingan. Xususan, Sharqning buyuk allomalari Al-Xorazmiyning "Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob" va "Hind hisobi haqida kitob" kabi asarlarida axborotlar almashinuvidagi o'ziga xos xususiyatlar matematik jihatdan hisob-kitob qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Internet tarmog'idagi milliy segmentlar va axborot xavfsizligining metodologik asoslari M.Kastels xulosalariga tayanilgan bo'lib,

olim internet milliy segmentlarida jamiyatlar o'z iqtisodiy manfaatlarini oshirishga qaratishini asoslaydi.[3] Shuningdek, I.A.Shevchenko internetda turli siyosiy g'oyalarga qarshi kurashda milliy manfaatlarini hisobga olish va axborot xavfsizligiga katta e'tibor berish lozimligini ko'rsatadi [4].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan ishlarda internet milliy segmentiga oid qator nazariy yondashuvlar mavjud. Masalan, Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji Sharqda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi.[5] Bu bugungi kunda jamoalar o'z internet milliy segmentlarini yaratish orqali o'z xavfsizligini ta'minlashga qilgan harakatlarida ko'rinadi.

Sotsiolog olim M.Bekmurodov jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi fikrini "Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi" nomli monografiyasida bildirgan, bugungi kunda internet milliy segmenti shakllanishiga ta'sir etishini aniq nazariy asos sifatida aytish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayni vaqtda milliy segment saytlari OAV sifatida rivojlanib borishi "Transformatsiyalashgan matbuot nazariyasi"ga asosan shakllanmoqda. Bugungi kunda OAV faoliyatini tubdan o'zgartirish va takomillashtirish orqali yangi davr – axborotlashgan jamiyatga xizmat qiluvchi "Transformatsiyalashgan matbuot" tushunilmoqda.

Tahlil va natijalar. Internet tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlarning asosiy foydalanuvchilari yoshlar ekanligi, internet tizimi tomonidan taqdim etilayotgan tezkor aloqa imkoniyatlari yoshlarga mo'ljallangan saytlar jadallik bilan rivojlanishiga olib kelmoqda. Bunday kommunikativ imkoniyatlar yoshlarning internet imkoniyatlariga ishonchini oshirdi, xorijiy mamlakatlarda istiqomat qilayotgan hamkorlari, do'stlari, hamkasblari, qarindoshlari va izdoshlari bilan sifatli aloqa vositasi rolini bajardi. Shu bilan birga, yoshlarning muayyan qismi internet tarmog'ida bo'sh vaqtlarini o'tkazishi, ularni salbiy mazmundagi axborotlar majmuasi, demokratik jamiyat rivojlanish tendensiyalariga zid bo'lgan, buzg'unchi g'oyalarni tarqatayotgan saytlar ta'siriga tushishiga sabab bo'lmoqda. Globallashtirish va axborot bosimi muttasil oshib borayotgan davrda ayrim xorijiy davlatlar hududida zararli ta'sirga tushgan yoshlar faoliyatini tasvirovchi, ularning tajovuzkorlik, bosqinchilik, jinoyatchilik, giyohvandlik, buzg'unchilik faoliyatini tashviq qiluvchi ma'lumotlarga ega bo'lgan internet saytlarining soni ortib bormoqda. Internet tarmog'ida ma'naviy buzulqilik va turli g'arazli maqsadlarni, konstitutsion tizimga qarshi, demokratik jamiyat qurish talablarini inkor etishni targ'ib qiluvchi, tinch-osoyishta, ijtimoiy, iqtisodiy turmushni buzishga undovchi ishlar bilan shug'ullanayotgan internet saytlari soni oshib bormoqda.

Bugungi kunda internet xavfsizligini ta'minlash va uning salbiy ta'sirini kamaytirishda "Tanaziyalashgan matbuot nazariyasi"dan («thanatos» yunoncha so'z bo'lib, tinch va oson o'lim, qiynoqsiz va aziyat chekmasdan o'lish) kelib chiqib yondashish lozim. Ushbu termin orqali iste'molchilar jamiyatini tirik organizm sifatida idrok etib, real hayotni siyosiy, madaniy, ijtimoiy, huquqiy, diniy, tibbiy, iqtisodiy, axborot xavfsizligi omillari orqali ichdan yemiruvchi, axborotlashgan jamiyatning salbiy holatidagi "o'lik matbuot" prognozi tushuniladi [6].

Shuningdek, global internet tarmog'ida milliy segmentni huquqiy jihatdan tartibga solish axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim masala ekanligini bir qator olimlar o'z ishlarida ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga G.Ibragimova ilmiy ishlarida milliy segment saytlarni rivojlantirish jarayonida global Internet texnologiyalarning roli va imkoniyatlarini katta ekanligini ta'kidlagan.[7] Bu borada B.Abdulxayev tadqiqot

ishlarida global Internet axborot tarmog'ida tarqatilayotgan axborotlarni tahlili jarayonida, unga taqlid qilishga foydalanuvchilarni berilib ketishi asoslangan[8].

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, internet milliy segmenti o'zida aholi xohishlarini, iqtisodiy manfaatlarini, jamoaviy xavfsizlikni, axborot xavfsizligini mujassamlashtirishi va huquqiy jihatdan tartibga solishi lozim. Shunda milliy segment to'laqonli nazariy asoslarga ega bo'ladi.

Bugungi kunda internet milliy segmenti saytlarini huquqiy jihatdan tartibga solish muhim o'ringa chiqmoqda. Bu borada Internet tarmog'ida milliy segment qismida joylashtirilgan axborotlardan samarali foydalanilgan holda, yoshlarda axloqiy, ma'naviy, siyosiy madaniyatni shakllantirish orqali barkamol avlodni tarbiyalash yangi taraqqiyot bosqichining dolzarab masalalaridan biridir. Shuning uchun, global internet tarmog'ida axborotlarni milliy manfaatlarimizga mos tarzda joylashtirish, ular mazmunini milliy g'oya, milliy taraqqiyot strategiyasiga mos sur'atda rivojlantirish maqsadida uning ilmiy metodologik, huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida, Internet tarmog'ida milliy segmentni tartibga solish, takomillashtirish, uni innovatsion, demokratik islohotlar mazmuni, maqsadi doirasida axborotlar mazmuni bilan boyitish, to'ldirish, yangilash va yoshlarni tajovujkor g'oyalardan, ular ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlardan asrash vazifasi, uning innovatsion mexanizmlarini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. [9] Shuning uchun, ayrim yoshlar internet tarmog'idagi onlayn azart o'yinlar orqali buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushayotganligini hisobga olib, internet tarmog'ida onlayn azart o'yinlar namoyishi monitoringini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. [10]

Global internet tarmog'idagi salbiy axborotlardan ijtimoiy guruhlar barcha vakillarining foydalanishi natijasida g'oyaviy kurashlar tizimi shakllandi va barqaror davlatlarda ham lokal urushlarni keltirib chiqarmoqda. Bularning oldini olish uchun aholining demokratik taraqqiyot mazmunidagi axborotga bo'lgan ijtimoiy talabini, istaklarini rasmiy milliy segment tarkibiga kiruvchi saytlar orqali qondirish lozim. Ammo, bizning o'tkazgan ilmiy tadqiqotimiz natijalari dalolat beradiki, global internet tarmog'i milliy segmentidagi saytlar mazmuni, joylashtirilgan axborotlarning ko'lami bu talabga javob bermaydi.

Demokratik islohotlar jamiyatning barqaror taraqqiyoti talablariga mos sur'atda, global internet tarmog'ining milliy segmentini yanada takomillashtirish, mamlakatimizning turli yo'nalishlardagi zamonaviy veb-resurslarni, shu jumladan, aholining, xususan, yosh avlod vakillarining fuqarolik jamiyati rivojlanishi jarayoni mazmunidagi, ilmiy asoslangan, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar mohiyati, maqsadi va rivojlanish xususiyatlarini ochib bera oladigan axborotlarga bo'lgan, jamiyat a'zolari intellektual talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadida tarmoq resurslarini, shaxs intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish uchun zarur texnik va qulay shart-sharoitlarni yaratish vazifasi yuklangan.

Yangi rivojlanish bosqichida global internet tarmog'idan tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalar, jaholat, radikalizm, giyohvandlik, tarkidunyochilik va suitsidni jamiyat a'zolariga, yoshlar shuuriga, tafakkuriga ta'sirining oldini olish maqsadida turli blogerlar sahifalarida ma'lumotlarni monitoring qilish uchun muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuni blogerlar faoliyatiga doir qo'shimchalar bilan boyitildi. Jumladan, ushbu Qonunda «blogger» atamasiga izoh berildi. Unga ko'ra, bloger internet xalqaro axborot tarmog'idagi o'z veb-sayti va (yoki) veb-sayt


sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan, axborotdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs ekanligi belgilandi.

Ijtimoiy tarmoqlarda, ya'ni «Facebook», «Twitter»da ochilgan profililar veb-sayt sahifasi sifatida e'tirof etilsa, unda ijtimoiy tarmoqning barcha foydalanuvchilarini blogger sifatida e'tirof etish lozim bo'ladi. Ya'ni, ijtimoiy tarmoqda muayyan axborot, ma'lumot yoki fotosurat qoldirgan va abonentlar erkin foydalanishi va muhokama qilishi mumkin bo'lgan axborot joylashtirgan har qanday jismoniy shaxs blogger maqomini oladi. Ammo Qonun matni shu maqsadda talqin qilinsa, unda

bloggerlikning asl mohiyatiga zid bo'ladi. Aslida ijtimoiy tarmoqlarning har qanday foydalanuvchisi blogger sifatida e'tirof etilmasligi lozim[11].

Shuningdek, mamlakatda faoliyat olib borayotgan global internet tarmog'idagi saytlarni ommaviy axborot vositasi sifatida belgilashda muayyan o'zgartirishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ushbu sohada xalqaro tajriba tasdiqlaydiki, jumladan, blogerning shaxsiy blogiga bir kunda 3 ming nafardan ko'proq kishi tashrif buyursa, ushbu sayt jamoatchilik fikriga ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu sayt ommaviy axborot vositasi sifatida e'tirof qilinadi. Ayni vaqtda global internet tarmog'idagi milliy saytlarni soni ortib bormoqda.

(1-diagramma)



1-diagramma. Internet milliy saytlarini o'sish tendensiyasi. [12]

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi ilmiy tahlillar asosida mustaqil xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda global internet tarmog'idagi milliy saytlarni tartibga solish bo'yicha qonunchilik jarayonida muayyan bo'shliqlar mavjud.

Ushbu masalada bo'shliqlarni to'ldirish uchun ayrim takliflarni berish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunida «blogger» atamasi bloggerlikning asl mohiyatiga zid talqin etilgan. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, ijtimoiy tarmoqlarning har qanday foydalanuvchisi «blogger» sifatida e'tirof etilmasligi lozim. Bu borada blogger xususiyatlaridan kelib chiqqan holda «blogger» atamasiga «Internet xalqaro axborot tarmog'idagi o'z veb-saytiga va (yoki) ijtimoiy tarmoqlardagi o'z veb-sayt sahifasiga (guruhiga) hamma erkin

foydalanishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan, axborotdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs», deb ta'rif berish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi axborot tizimini takomillashtirish jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy muammolarning mavjudligi, jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan, o'zining yangi rivojlanish bosqichiga kirgan raqamli jamiyatda innovatsion o'zgarishlarni hisobga olib, mamlakatda global internet tarmog'ida milliy saytlarni yanada rivojlantirish, takomillashtirish maqsadida milliy qonunchilikka bir qator qo'shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoev-25-01-2020>.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-tom. – Toshkent: Sharq. 1968. B - 404.
3. Kastels M. Galaktika Internet: Razmyshleniya ob Internete, biznese i obshchestve. – Yekaterinburg: Akademiya. 2004.
4. Shevchenko I.A. Politicheskie internet-texnologii v trans-formiruyushemsya obshchestve: avtoref. dis. .kand. polit. nauk. Stavropol, 2005.
5. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – Toshkent: «Yoshlar». 2020. – B. 9.
6. Abduazimov O.U. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta'minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining o'rni (O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining 2001-2016 yillardagi materiallari misolida). – Toshkent: «Fan va texnologiya». 2016.
7. Ibragimova G.I. Globalnoe informatsionnoe prostranstvo v usloviyax formirovaniya novogo mirovogo poryadka: Avtoreferat. diss... kand. polit. nauk. – Tashkent: UMED, 2012. S. 16.
8. Abdulxaev B.A. Axborot psixologik ekspansiya milliy xavfsizlikka tahdid sifatida.// Xavfsizlik psixologiyasi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2008y 15 mart).- Toshkent.,2008.-B. 251.
9. Beshtokov M.V. Kompyuterno-interaktivnaya sotsialnaya sistema kak sreda sotsializatsii Rossiyskoy molodeji: struktura, potentsial i sotsializatsionnye riski. Avtoreferat dis. ... kand. sotsiol. nauk. Rostov n/d., 2018. – S. 24.
10. Varlamova S.N., Goncharova Ye.R., Sokolova I.V. Internet-zavisimost molodeji megapolisov: kriterii i tipologiya // Monitoring obshchestvennogo mneniya: ekonomicheskie i sotsialnye peremeny. 2015. №2 (125). S. 165-181.
11. Xudoyberganov X., «Bloggerlar haqida»gi Qonun.URL:<http://xushnadbek.uz/bloggerlar-haqida/10.03.2016>.
12. Statistika ma'lumotlari. URL:<https://cctld.uz/stat/> 10.12.2021 y.